

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MAQOLLARNING O'RNI

Namuna Nazarova,
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Sirojiddin Sayyidning o'zbek xalq maqollaridan unumli foydalanib yozilgan she'rlari tahlilga tortilgan. Xalq maqollari, hikmatli so'zlar yordamida yaratilgan misralarning poetik ko'lami atroflicha tadqiq qilindi. Shoirning badiiy topilmalari o'rganildi.

Tayanch so'zlar: Maqollar, hikmatli so'zlar, irsoli masal, milliylik, xalqchillik, badiiy san'atlar, poetik topilmalar.

Аннотация. В данной научной статье были проанализированы стихи Сирожиддина Сайида, написанные с использованием узбекских народных пословиц. Поэтический размах стихов, созданных с помощью народных пословиц, слов мудрости, был тщательно исследован. Были изучены художественные находки поэта.

Ключевые слова: пословицы, поговорки, наследственные притчи, народность, народность, изобразительное искусство, поэтические находки.

Annotation. In this scientific article, the poems of Sirozhiddin Sayyid, written using Uzbek folk Proverbs most efficiently, were subjected to analysis. The poetic scope of the verses, created using folk Proverbs, Proverbs, has been thoroughly researched. The poet's artistic findings were studied.

Key words: Proverbs, Proverbs, hereditary parable, nationalism, folksy, Fine Arts, poetic finds.

"She'rda maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda ishlatish usuliga irsoli masal deb ataldi". [5,4] Adabiyotda maqol janri uzoq asrlardan beri mavjud. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida bu janr keng ko'lamga ega. Bunga sabab o'zbek adabiyotining tamal toshi hisoblangan xalq og'zaki ijodining boyligidir. Dono xalqimizning purhikmat gaplari, aqlli o'gitlari yillar davomida sayqallanib bir qolipga kelib qolgan va og'izdan- og'izga, avlodan- avlodga o'tib borgan sari rivoj topib, tovlanib o'z qiymatini oshirib bormoqda. "Maqol fikr qaymog'i, aqliy tajribalar ifodasi bo'lgani uchun baytda maqol ishlatish san'at darajasida qadrlanadi. Chunki maqolda bir gapda katta tafakkur ixtirosi o'z aksini topgan bo'ladi". [6,25-26] "Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi". [7,5] Bu kungacha bo'lgan adabiyotning va hozirgi o'zbek adabiyotining xoh nasri, xoh nazmida bo'lsin maqollarning go'zal namunalarini uchratamiz. Sirojiddin Sayyid ijodi ham bundan mutasno emas. Shoir she'rlarida maqollarni qo'llab ijod namunalarining badiiy qiymatini oshirgan, xalqqa yaqinligini ta'minlagan.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Darvozalar” she’ri yurtimiz tarixi bilan bog‘liq. Sir emaski, bir paytlar O‘zbekistonga sobiq SSSRning turli joylaridan odamlar ko‘chirilib keltirilgan. Bunda albatta siyosiy nayranglar mavjud bo‘lgan. Ular boqimanda bo‘lib o‘zbek xalqining osh- noniga sherik bo‘lishgan. Qolaversa, milliy qadriyatlarimizni oyoq osti qilishib o‘zlarining biz uchun juda – juda notanish, notabiiy bo‘lgan, mentalitetimizdan ancha yiroq hisoblangan, o‘zlari madaniyat deb ta’riflashgan “madaniyatlarini” ko‘z- ko‘z qilishadi. Sirojiddin Sayyid kabi xalqning ilg‘or fikrlovchi, o‘tkir zehn sohiblari vaziyatga to‘g‘ri baho bera olishgan. Qalblarini o‘rtagan o‘y fikrlarini she’rlarida ifodalagan. “Darvozalar” she’rida shu kabi fikrlar inikosi mujassam.

Sarhadlarda bukun sho‘ru uduvvat bor,
Lekin bunda hali mehru muruvvat bor.
Biroq bukun qolmabdi-ku hech narsasi,
Mehrning ham bo‘lsa yaxshi chegarasi. [2,82]

“Mehrning ham bo‘lsa yaxshi chegarasi” deganda shoir “Asalning ham ozi yaxshi” maqolining shaklan o‘zgargan, lekin ma’nosi saqlanib qolgan variantini yarata olagan. Atoullloh Husayniy she’riy asarlarda maqol qo‘llashning ikki usulini ta’kidlab o‘tadi: 1. Maqolni o‘zgarishsiz qo‘llash. 2. Maqolning mazmunini saqlagan holda so‘z va tartibni o‘zgartirib berish. [8,210] Nazarimizda, shoir maqol shakli va so‘zlarini o‘zgartirib she’rning badiiy qiymatini oshirgan va kerakli fikrlarni asosli qilib ayta olgan.

Mahkam bo‘lsak yurtni shikast etmasdilar,
Qodiriyni balki olib ketmasdilar.
Bedarvoza shahar yo‘qdir, bobolardan
Qolgan gap bu, olmadim men havolardan. [2,82]

Yuqorida keltirilgan misralarda “Shahar bedarvoza emas” maqoli qo‘llanilgan. Misralar qa’riga shoir “O‘z uyingni o‘zing asra, O‘zingni mahkam tut, qo‘shningni o‘g‘ri tutma” kabi maqollar mazmunini ham singdira olgan. Maqollar fikrlar qaymog‘i bo‘lgani uchun ham mulohazalarni ortiqcha so‘zlersiz yoritib berish imkonini yarata oladi.

“Do‘stning somoni” deb nomlangan hazil she’rda “Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga” maqoli asos bo‘la olgan:

Boshimga ne tushsa- yaxshi, yomonmi,
Noumid bo‘lmadim - peshonam dedim.
Birovning donidan do‘stning somoni
Yaxshi deb, do‘stimga ishongan edim.
U ham og‘rinibmi yoki or qilib,
Avval bor dardini ustimga yiqdi,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Don to‘la qopni so‘ng ketdi orqalab,
Somonini esa po‘stimga tiqdi.[2, 349]

“Bevafolik” deb nomlangan she‘rning bir necha o‘rinlarida irsoli masal qo‘llanilgan. She‘rda bevafolik bir necha o‘xshtishlar asosida talqin etiladi.

O‘sma ketar, egma qoshlar qarib qolgay,
Ikki qoshning o‘z “yo”siga vafosi yo‘q. [3,37]

Xalqimizda “O‘sma ketar, qosh qolar” degan maqol bor. Bu maqol o‘tkinchi narsalarga ruju qo‘ymaslik, asl narsalarni qadriga yetishga chaqiradi. Shoirning mahorati shundaki, nafaqat o‘sma, balki, qoshlar shaklining o‘zi-da o‘tkinchi, ularning chiroyi ham abadiy emasligini “Ikki qoshning o‘z “yo”siga vafosi yo‘q” jumlasida mujassamlashtirganligidadir. Mumtoz adabiyotda yorning go‘zalligini ta‘riflashda, uning qoshlarini tavsiflashda arab alifbosidagi “Yo” harfiga murojaat qilinadi. “Yo” harfining yozilishi qoshlar shakliga o‘xshagani bois, go‘zalning qoshlari bu harfga qiyosllanadi. Lirik qahramonning nazdida “yo” lik, ya‘ni “Yoy” dek go‘zallik ham o‘tkinchidir. Chunki vaqt o‘tishi bilan bu chiroyli shakl ham tabiiy ravishda o‘zgarishlarga uchraydi.

Sultonlari sultonini sotgan dunyo,
Gadosining gadosiga vafosi yo‘q. [3,37]

Bu o‘rinda esa “Gadoning dushmani gado bo‘ladi” degan maqol mujassamlashgan.

“Bog‘” she‘rida ham irsoli masal xususiyatlari mavjud.
Bu dunyoda bog‘ qilmoqning hikmati bor,
Bog‘ qolsa gar inson umrin ziynati bor.
Bir ko‘chat ham o‘tqazmayin o‘tsa odam,
Inson umrin necha pullik qiymati bor?
Bog‘bon aytar: nom qoldiring, qoldiring bog‘
Ki umrning daryo misol shiddati bor. [3,53-54]

She‘rda boshdan oyoq “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘” degan maqol mazmuni yetakchilik qiladi.

“Davomiylik” she‘rida esa “ Olmaning tagiga olma tushadi” va “Chayonning bolasi chayon bo‘ladi, ilonning bolasi ilon” degan maqollar mazmuni o‘z tasdig‘ini topgan:

G‘alamisdan g‘alamis tug‘iladi,
Kalamushdan kalmush tug‘iladi.
Biror zamon bundoq ishni ko‘rganmi-
Biror qarg‘a bulbul tug‘ib berganmi?
Garchi bir xil dum bilan yollari bor

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Eshak bilan xachirdan chiqmas tulpor.
Olloh o‘zi asrasin nomardlardan,
Mardlar qolar bu dunyoda mardlardan.
Or – nomusi, g‘ururlari qolmishlar,
Alpomishdan tug‘ilgay Alpomishlar. [3,116-117]

Yuqoridagi misralarda “Nima eksang, shuni o‘rasan” maqolining ham mazmuni mujassam. She’rda farzandlar tarbiyasiga befarq bo‘lmaslik, jamiyatga munosib insonlar qoldirishga targ‘ib anglashiladi.

Sirojiddin Sayyidning fard janriga oid ijod namunalarining ham ayrimlarida irsoli masal san’ati o‘z aksini topgan:

Sabr qilsang, xohishingga aylagay taqdir zamon,
Sen erishgan ushbu halvo g‘ora erdi bir zamon. [3,304] - Sabr qilsang g‘o‘radan holva bitadi. Ushbu maqol “Domla” she’rida ham qo‘llanilgan:

Olamda eng ulug‘ taomdir sabr,
Bir kun halvo bo‘lib yetilgay g‘o‘ra. [3,304]

Bu o‘rinda ilm olishda va ziyo tarqatishdagi mashaqqatlar xususida fikr yuritar ekan, mashaqqatlar bir kuni o‘z samarasini berishiga ishonchni maqollar vositasida tasdiqlaydi. “Sabr tagi sariq oltin ” maqoli mazmuni ham she’r badiiy qiymatini oshirishga yordam bergan.

Bog‘ni bog‘ etguncha bag‘ring qanchalar dog‘ bo‘lgusi ,
Chekma g‘am,ketsang – izingdan dog‘ emas, bog‘ qolgusi. [3,307] -
Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.

Senga boqmay o‘tdilar ne- ne zamonlar benishon,
Sen zamonga boqqil endi, senga boqsin bu zamon. [3,307] – Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

O‘g‘riga bergay edi kazzob dars:
Ikki qo‘l bo‘lsak ikov – chiqqay qars. [3,307] – Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

“O‘zbek – turkman manzumasini” da ketma – ketlikda irsoli masaldan foydalanilgan:

Yolg‘iz otning dong‘i chiqmayin to‘zar,
Oqil zotlar Vatan qurib, el tuzar,
Birlashmagan to‘zar, birlashgan - o‘zar,
Ahdu paymonlari turkman, o‘zbekning. [3,307]

Ikki millatning tillar-u dillar aro mushtarakligi tarannum etilgan bu she’rda irsoli masal orqali yanada jips bo‘lishga, birdam bo‘lib yaxshi yutuqlarga chorlash istagi bayon etilgan.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Shoirning “Bo‘lgay” radifli g‘azili tarkibida ham irsoli masalni uchratamiz:

Ariq ichra oqar suvday
o‘tar vaqting, hayoting ham –
Bu qirg‘oqdan u qirg‘oqqa
sening bir sakrashing bo‘lgay. [3,307]

Shoir “Umr oqar daryo” maqoliga “Bu qirg‘oqdan u qirg‘oqqa sening bir sakrashing bo‘lgay”, - deya ajoyib tarzda mutonosib bo‘lgan qiyoslashni keltira olgan.

“Tanazzul ” dostonida ham maqol qo‘llanilgan. Xodim obrazi boshqa salbiy qahramonlar tomonidan masxara qilingan Begona obraziga tasalli tariqasida(o‘z tomoniga og‘dirish maqsadida)ushbu fikrlarni aytadi:

Xafa bo‘lmang. Men bularni yaxshi bilaman.
Tosh otmoq ham shart emasdir hurgan har itga. [1,333]

Ko‘rinib turibdiki, shoir “It hurar, karvon o‘tar” maqolining shaklan o‘zgargan variantini qo‘llagan.

“Hayrat ul abror” ning o‘ninchi maqoloti asosida yozilgan “Egrilik va to‘g‘rilik” she‘rida “Egilgan boshni qilich kesmas” maqoli o‘rinli qo‘llanilgan.Navoiy hazratlariga hamohang tarzda to‘g‘rilik va egrilikka ta‘rif berar ekan, quyidagi jummalarni ham hayrat, ham hasrat tuyg‘usi bilan yozadi:

Rostgo‘y bosh uzra, boq, bu ne ilinj?
Ul boshni olgaydir ul egri qilich.
Vale bordir qadim, pandmi, muammo –
Egilgan boshni ham tig‘ kesmas ammo. [4,55]

“Yolg‘iz ot va toq odam” she‘ri “Hayrat ul abror”ning sakkizinchi maqoloti asosida yozilgan bo‘lib,unda ketma-ketlikdagi maqollar jamlanmasini uchratishimiz mumkin:

Changi chiqmas derlar yolg‘iz otning ham,
Changi chiqsa ham , dong‘ aning kam. (Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham , dong‘i chiqmas.)

Qars ikki qo‘ldandir, o‘yla, ey tanho,
Qachon bitta kaftdan chiqmishdir sado? (Qars ikki qo‘ldan chiqadi).

O‘tlug‘ fikr chiqmas yolg‘iz boshdan ham,
O‘t chiqmas yakka, chaqmoqtoshdan ham. (Bir kalladan ikki kalla yaxshi). [4,61]

“Ekin va hosil” da “Nima eksang, shuni o‘rasan” maqoli yaxshiliklar qilishga va yaxshi mukafotlarga sazovor bo‘lishga undov tariqasida qo‘llanilgan:

Besh kunlik umringizda kezib ko‘rgaysan,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Bunda ne eksang gar - unda o‘rgaysan. [4,83].

“Suv keltirgan elda aziz” she’rida o‘zbek xalqining mehnat-u zahmatlarga bardoshli xalq ekanligini ta’riflashda “Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib ” maqoli aynan qo‘llanilgan:

Aslida- ku sel duch kelsa, sen simirgan xalqdirsan,

Tog‘ kelsa ham mardonavor sen yemirgan xalqdirsan. [4,83].

“Bedorlikning yo‘l xaritasi yoxud obod qishloq manzumasi” da ham bir necha o‘rinlar maqollar bilan bezatilgan. Yurtimizdagi o‘zgarishlar, yangi islohotlar, bunyodkorlik ruhining avj olishi kabi ezgulikni tarannum etgan ushbu she’rda xalqimizning tantiligi, mehnatsevarligi, obodlikka xayrixoh sifatleri maqollar yordamida yanada yaqqolroq tasvirlangan:

El har so‘zni anglab aytar, elning so‘zi dur- guhar:

Yaxshi odam yurt tuzar-u yomon odam yurt buzar.

Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, tinchlik bilan el ko‘karar,

El og‘irin er ko‘tarar, er yigitni el ko‘tarar. [4,132-133].

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Sirojiddin Sayyid ijodidagi deyarli har bir janrda o‘ziga xos ko‘rinish bilan irsoli masal san’ati qo‘llanilgan. Shoir teran fikrlarni qisqa satrlarda, ya’ni irsoli masal shaklida o‘quvchilarga zavq ulashuvchi tarzda yetkaza olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. I jild. –T.: “Sharq”, 2018. - 480 b.
2. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. II jild. –T.: “Sharq”, 2018. - 568 b.
3. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. III jild. –T.: “Sharq”, 2019. - 576 b.
4. Sirojiddin Sayyid. She’rlar to‘plami. IV jild. –T.: “Sharq”, 2019. - 608 b.
5. Badiiy san’at jozibasi. Asllayev. A va boshqalar. T.: 2005, “Yangi asr avlodi”, 24 b.
6. Vahob Rahmonov. She’r san’atlari. T.: 2020, “Sharq” nashriyoti, 238 b.
7. O‘zbek xalq maqollari. T.: 2005, “Sharq” nashriyoti, 510 b.
8. Ilhom G‘aniyev, Nodira Afoqova, Abdulla Orif falsafasi. T.: 2021, “Muharrir”, 308 b.
9. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
10. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
11. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

12. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
13. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
14. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.